



TA'LIM JARAYONIDA RAUF PARFI IJODINI O'RGANISH

Xayrullayeva Mashhura Ma'murjon qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
4-kurs talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2023 yil

Ma'qullandi: 23-May 2023 yil

Nashr qilindi: 25-May 2023 yil

KEY WORDS

Shoir, She'r, Rauf Parfi, "Tong otmoqda", "Yomg'ir yog'ar", "Yurak", "Yoz kechasi", "Yana qaytib keldim",

ABSTRACT

Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega, betakror she'rlar sohibi, yuksak iste'dodli shoir Rauf Parfi ijodini ta'lim jarayonida o'rganish haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, mustaqillikning dastlabki yillarida Rauf Parfi she'rlariga qiziqish bir muncha baland edi. Maktab darsliklarida (11-sinf) shoir tarjimai holining o'ziga xos tarzda berilgani ma'lum edi. Lekin o'tgan yillar davomida shoir ijodiga munosabat goh salbiy, goh ijobiy tomonga o'zgarib bordi. Masalan, shoirning "Turkiston", "Abdullajon marsiyasi", "Tong otmoqda", "Yomg'ir yog'ar" va boshqa she'rlari berib kelingan. Qayd etilgan ushbu she'rlarda she'rlarning ma'no mohiyati maktab o'quvchisining yoshini hisobga olib berilgan.

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida o'zining betakror she'rlari bilan o'ziga munosib o'ringa ega bo'lgan shoirlardan biri Rauf Parfi hisoblanadi. Shoir ijod maydoniga XX asrning 60-yillarida kirib keldi. Rauf Parfi taqdiriga ijodkor muxlislarining sevimli shoiri bo'lishdek baxt bitilgan edi. Shoir she'rlarida vatan, ona, inson, tabiat tasviri birinchi o'rinda turadi.

"Tong otmoqda", "Yomg'ir yog'ar", "Yurak", "Yoz kechasi", "Yana qaytib keldim..." she'rlari shoirning yuksak iste'dod sohibi ekanligidan dalolat beradi. "Tong otmoqda" she'rida ijodkorning umidlari, samimiy tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. E'tibor berilsa, bunda quyosh zambarakka, uning zarrin nurlari o'qlarga qiyoslangan. Quyoshdan tinimsiz o'qlar yog'iladi. Bu o'xshatish bejiz emas. Nurning zarralar ko'rinishida tarqalishi ham mavjud hodisa hisoblanadi. Yer shari shoir tasavvurida o'sha zarralar oqimi-o'qlardan yaralangandek ko'rinadi.

Har kuni saharda uyg'ongan odam musaffo tong bilan qarshilashadi. Tong pokizaligi insonlar qalbiga ko'chadi. Shoir o'z qalb kechinmalarini ifodalashda tabiatga murojaat qilishni "Yomg'ir yog'ar" she'rida ham ko'rish mumkin. She'rdagi "Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar" misrasi olti marta qaytariladi. Bunday takror misoli yomg'irning yog'ish tovushini eshitishga, yomg'irning yerga tushish harakatini tasavvur etishga yordam beradi. She'ring lirik qahramoni go'zal tabiat hodisasiga butun vujudi bilan qo'shiladi. Chunki shoir: "men unga ochaman bag'rimni", - deb e'tirof etadi. Shoir qalbida o'zgacha bir zavq-shavq paydo bo'ladi. Buning ta'sirida yomg'ir unutiladi. Yomg'irga lirik qahramon asir bo'ladi. Eng muhimi, ruhiy vaziyat ortidan she'r tug'iladi. Shu bois: "Yog'a boshlar qog'ozga ko'ngil", - deb o'z she'riga

yakun yasaydi. “Men bunday vaziyatda qog’ozga she’r yozdim” deyishi juda sodda va she’riyatning tilidan ancha yiroq tushgan bo’lardi. She’rga “ko’ngil”ning qo’shilishi uning badiiy quvvatini oshiradi. She’rda shoirning o’z ko’ngli bilan suhbatlari, muloqot va bahslari ko’p kuzatiladi. Shoir o’z she’rida so’z, misra, tovushlar takroridan maydonga keladigan takrir, tavze’ hamda o’zaro qarshilantirishdan paydo bo’lgan tazod kabi badiiy san’atlardan unumli foydalangandir.

Shoirlarga bahor fasli ilhom, jo’shqinlik beradi. Rauf Parfining bir she’ri yoz fasli sha’niga to’qilgan qo’shiqdir. Rauf Parfi yoz kechasidagi tabiat manzarasini o’zgacha nigoh bilan kuzatadi. Qulog’i shiraga to’lib g’arq pishgan qovunning tars yorilishini eshitadi. Bir payt uning ko’zlari pishib to’kilgan shaftolilarni ko’radi. Misralarda Rauf Parfi jonlantirish, tashxis san’atini qo’llagan holda dalalarni inson kabi uxlatadi. Unga zid bo’lgan, oqar suvlar hamisha uyg’oq bo’ladi. Shuning uchun suv ariqlar bo’ylab polizga shoshib ketadi. Tundagi sokinlikni , chigirtkalarining tovushi buzadi. Chigirtkaning g’alati kuyi shoirni o’ziga tortadi. “Chigirtkalar chirillar chunon”-bu misradagi “ch” tovushining nazokati mitti hasharotlar kuylayotgan kuy nafasatiga qo’shiladi.

She’rning oxirgi bandida shoir shunday yozadi:

Yoz yomg’iri iliqdir biram,
Shitir-shitir uning qo’shig’i.
Bir shirin hid taralar yerdan,
Va yurakka ketar qo’shib.

Yozda yog’adigan yomg’irning gashti yomg’ir suvining tafti bo’lakcha bo’ladi. Eng muhim jihati she’rning oxirgi bandidagi ta’kid. Yomg’irdan keyin yerdan tuproq hidi kelib turadi. Rauf Parfi ko’ngil ko’zi bilan ranglarni ko’radi, hidlarni sezadi. Bularning barchasini shoir o’z yuragidan o’tkazadi.

Endi Rauf Parfining darslikda berilgan she’rlarini turli metodlar orqali tahlil qilamiz. “Tong otmoqda “she’rida nega shoir tong otishini zambarakka o’xshatishini bilish maqsadida oq qog’ozga zambarakni rasmini chizib olamiz. Natijada zambarakning quyoshga o’xshashligi, o’qlari esa quyoshni eslatishini ko’ramiz. Shu bilan birga zambarakni o’qi tekkan narsa jarohat olishi, bu holat quyosh nuri ta’sirida Yer sharining yaralanishiga qiyoslangan.


“Yurak” she’rini esa “Tushunchalar izohi” metodi orqali ko’rib chiqamiz. Quyida berilgan jadvalda she’rdan olingan birikmalar keltirilgan. Jadvaldagi birikmalarining she’rdagi o’rnini topib, qanday ma’no kasb etganligini aniqlash.

“Tushunchalar izohi”

T/r	Tushuncha	
1	Sachrab yonmoq	
2	O’tkinchi g’am	
3	Ochiq ko’cha	
4	Yurak to’g’risida sayramoq	
5	Mantiq axtarmoq	
6	Sho’rlik dunyo	
7	Dunyo yiqilishi	

Har bir tushuncha anglatgan mazmuni yonidagi qatorga yozamiz. Bunda o‘quvchilar kichik guruh bo‘lib ishlashi mumkin. Har 4 kishi bitta kichik guruhni tashkil etadi. Tushunchalar izohlangandan keyin, she‘rning mazmuni haqida o‘quvchilar fikri tinglanadi. She‘r bo‘yicha xulosa qilinadi.

Endi “Yomg‘ir yog‘ar” she‘rini “O‘tkir zehn” metodi orqali ko‘rib chiqamiz. Bu metodda quyida berilgan doiralarga she‘rda ramziy ma‘no kasb etgan so‘zlarni yozib chiqamiz. Ular anglatgan ma‘nolarni aytib, oxirida ularni tahlil qilamiz.



Rauf Parfining “Yana qaytib keldim”, “Yoz kechasi” she‘rlarida tabiat tasvirining go‘zal ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Endi “O‘zingizni sinab ko‘ring” mashqi orqali jadvalni to‘ldiramiz va shoirning she‘rlari tahlilini mustahkamlaymiz. Mashqda berilgan tushunchalar shoirning qaysi she‘riga tegishli ekanligini aniqlaymiz.

O'ZINGIZNI SINAB KO'RING

“Tong otmoqda”	Maysa o'sgan tom
“Yoz kecha”	Yaralangan Yer shari
“Yana qaytib keldim”	Qog'ozga yog'gan ko'ngil
“Yomg'ir yog'ar”	Quyoshni kutib yotgan dala

Rauf Parfi ijodini, uning yozgan she'rlarini yuqoridagi kabi turli xil metodlar orqali tahlil qilishimiz mumkin.

Bundan tashqari shoirning she'rlarida o'xshatishlar borligini ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkorning butun bir lirikasida ruhiy kechinmalarning go'zal ifodasi borligini payqaymiz.

Osmon naq boshimning ustida turar,
Ichayotgan choyimga bulutlar qo'nar.
Qaldirg'ochlar bag'rini yerga urar,
Daraxtlar sinar, oftob so'nar,
Meni tashlab qayga ketding, do'stim.

Shoirning tasavvuri yuqoridagi osmonni tortib, boshining ustiga olib tushadi. Demak, osmon uning boshi ustiga kelgach, bulut uning piyolasidagi choy ustiga qo'nadi. Bulut esa issiq choydan chiqadigan bug'ga ishora qiladi, bug' bilan bulut paydo bo'lish xususiyatiga ko'ra, bir xil ekanligi ifodalanadi. She'rda qaldirg'ochlar harakati bilan inson uchun yagona makon yerga qaytiladi. Osmon bilan Yer bir joyga to'planib, osmon Quyoshi bilan birga va Yer insoni va daraxtlari bilan birga sinishini, so'nishini ko'rishimiz mumkin. Shoir to'rt misra orqali o'ta murakkab mazmun va falsafani muxlislari qalbiga singdira olgan.

Xayrlashdik... o'ynar kapalak
Biz asir bo'lmadik lahzaga
Xayrlashdik beso'z, beyurak
Bu bog', bu g ul keldi larzaga...

Shoirning bu she'rida yigit va qizning she'r davomida sababi aytilmagan muhabbat ayriliqlari ifodalangan. Xalqimizda kapalak beqarorlik, bevafoqlik, o'tkinchilik timsolidir. Bu misralarda kapalak o'yini barqaror bo'lmagan sevgiga ishora hisoblanadi. Bu she'rdagi qahramonlar muhabbatni eng yuksak va noyob tuyg'u sifatida bilmadilar. Shu sababli o'rtada ishqiy munosabatlardan zarracha ham qolmadi. Ular “beso'z” va “beyurak” xayrlashishmoqda. Bu holatdan muhabbat saltanatining vakillari bu bog' hamda bu gul larzaga kelyapti. Sevgiga

bevosita aloqador bo'lmagan kapalak aytilmoqchi bo'lgan fikrni yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Nima qilib qo'yding, quyosh
Nima qilib qo'yding.
Eritib yubording-ku suv qilib, qurmag'ur,
Takrorlanmas mo'jizani darchamda

Xonaning darchasidan biz tashqari olamni, tabiatni, atrof-muhitni ko'rishimiz mumkin. Tasavvur qilaylik, derazaning ortidagi borliq butun bir katta hayot, darcha esa katta hayotning boshlanishi hisoblanadi. She'rdagi mo'jiza nima, nima uchun u aynan takrorlanmas?! Bu mo'jiza inson umrining qordek toza va musaffo yoshligi, bolaligi hisoblanar. Inson darcha orqali tashqari olamga o'tmoqchi va uni darcha ortida tongda butun borliqni uyg'otguvchi, erta bahorda tanlarga yoquvchi, saratonda esa kuydiruvchi quyosh – hayot qarshilamoqda. Bir marta tushgan suvga yana qayta tushib bo'lmaganidek, yoshlikka ham qaytib bo'lmaydi. Yoshlikdan faqat takrorlanmas xotiralar qoladi. Shu tufayli ham quyosh yoshlikni eritib, suv kabi oqizib inson umrining, hayotining boshlanish pog'onasi darchasida qoldirmoqda. Shoirning bu she'rini o'qish jarayonida derazaga qo'ngan qorni eritib yuborgan quyosh manzarasi, tabiat manzarasi ko'z oldimizga keladi. Takror o'qiganimizda esa ikkinchi bir boshqa hissiyotlar beradi: darcha bu balki ko'z bo'lishi mumkindir. Rauf Parfi bir she'rida "ko'zlarimda yumaloq sevgi" deb yozadi. Darcha ko'z bo'lsa, mo'jiza bu sevgi, quyosh esa xiyonat, sevgini yo'q qiluvchi, eritib yuboruvchi xiyonat... Shoirning qalbi juda ham kengki, xiyonatni ham kechirib yuboradi, buning isboti sifatida xiyonatni "qurmag'ur" deya mayin erkalab qo'yishida ko'rishimiz mumkin. Tabiat hodisasi quyosh qor, muzni eritishi hodisasi inson qalbidagi kechinmalar bilan birga shu misralarda raufona metaforik ifodasini topgan.

Rauf Parfi lirikasida, asosan, assotsiativ tafakkur tarzi yetakchilik qiladi. Assotsiatsiya esa poeziyada istioralar qo'llash, ramz- obrazlarga murojaat, kontrast usullardan foydalanish singari holatlar hisobiga vujudga keladi. Xususan, istioralar Rauf Parfi she'riyatida hissiy tafakkur psixologiyasini yoritishga, ramzli obrazlar tabiatini ochishga yordam beradi. Shoirning "Zangori og'ochman, hozir osaman" she'rida shoirning badiiy idroki istioralar shaklida ifodalangan. Ushbu she'rda zangori og'och, quyosh, qish, bahor, barg kabi istioralar mavjud.

Zangori og'ochman. Hozir osaman,
Qayta tirilaman to'lib sehriga
Ul Mehraning qanotini yozaman,
Dunyolarni to'ldiraman mehrga

Rauf parfi she'riyatida daraxt badiiy obrazi o'rnida ko'p hollarda og'och so'zi ishlatilgan. Ushbu misralarda og'och zangori shaklda, ya'ni lirik qahramon kechinmalari ifodasida shoirning ijod pallasi holati tasviri o'rin olgan. Ijod pallasi holati yashnagan yashil daraxtga qiyoslangan. "Hozir osaman" jumlasini orqali lirik qahramon daraxt shoxlariga nimani osmoqchi? Ayon bo'ladiki, "Zangori og'och"da lirik qahramon o'z mevalarini paydo qilmoqchi. Ana shu mevalarda u qaytadan jonlanadi. Mevalar pishishi uchun quyoshni – Mehrani chorlashadi. Mehra mevalarni jonlantiradi.

Abadiy koinot birla qolaman,
O'lsam chirqiraydi ovozim tanda,
Eng yangroq yulduzni uzib olaman.

Ezilgan, xo'rlangan bargman tubanda,
Yolg'iz, o'zim – xalqman , o'zim olomon,
Men shoirman axir, shohman, ey banda.

Eng yangroq yulduzni uzib olishi, ijod osmonida porlayotgan yulduzga egalik qilish istagi, bu – manguликka ishora. Barg badiiy obrazida “ezilgan”, “xo'rlangan” tashbehlarning qo'llanilishi ijodkor xoksorligiga ishora.

Rauf Parfi ijodi misoli botayotgan quyoshga o'xshatiladi. Quyosh botgach tun kiradi. Ufq, tun esa g'am-anduhlar, qora kunlar ramzi hisoblanmaydi. Tun – bu sukunat, osoyishtalik, sirlarni anglash vaqti, qilgan ishlarimizni sarhisob qilish vaqti hisoblanadi. Quyosh qanchalik qizarib botsa, ufqda qizil nurlarini qoldirsa ertangi kun ochiq hamda musaffo bo'ladi. Shoirning ijodi ham qizarib botayotgan quyosh kabi ertangi kun, kelajak uchun o'zining musaffo tuyg'ularini qoldiradi. Undan bahramand bo'lganimiz sari yangi yangi qirralarni o'zimiz uchun kashf etib boraveramiz. She'riyat shunday bir kuchki u bizning tuyg'ularimizni jumbushga keltiradi. Rauf Parfi ijodidagi ramzlar, o'xshatishlar, topilmalar esa har qanday so'zga oshno qalbni o'ziga jalb qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. To'xliyev B, Karimov B, Usmonova K, Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi, o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik- majmua. II qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. B. 198.
2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. B. 150.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: 2019.
4. Rauf Parfi. Qaytish. – T.: 1981.
5. Rauf Parfi. So'nggi vido. – T.: 2006. B. 133.
6. Internet manbalari: www.khurshiddavron.uz

INNOVATIVE
ACADEMY